e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)

Article / Original paper https://doi.org/10.67227/m07bv393

AJRIMLARNING BOLALAR TA'LIMI VA XULQ-ATVORIGA TA'SIRI

Negmatova Farangiza
Abduvaliyeva Mumtozxon

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, stajyor-o'qituvchi.
O'zbekiston Milliy universiteti, PhD, dotsent.
e-mail: negmatovafarangiz36@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/
e-mail: abduvalievamumtozxon@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0001-2640-5685

Annotatsiya.

Maqolada O'zbekistonda ota-onalar o'rtasidagi «yuqori nizoli» ajrim jarayonining voyaga yetmagan bolalarning ta'lim faoliyati hamda hissiy-xulq-atvor holatiga ta'siri empirik jihatdan o'rganiladi. Kesishma miqdoriy tadqiqot dizayni doirasida shahar va qishloq hududlarida ajrim bosqichida bo'lgan yoki yaqinda ajrashgan 250 nafar ota-ona (N = 250) o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Chastota va kross-tabulyar tahlil natijalariga ko'ra, oilalarning 78,4% ida nizo darajasi «yuqori» yoki «juda yuqori» deb baholangan. Respondentlarning 86,4% i farzandining o'qishida pasayish kuzatilganini (43,2% — sezilarli salbiy ta'sir, 43,2% — qisman ta'sir), 56,4% i esa xulq-atvor va hissiy holatda sezilarli o'zgarishlar yuz berganini qayd etgan. Nizo darajasi ortgan sari bolalarda sezilarli xulq-atvor og'ishlari ulushi ortib boradi, ta'limga salbiy ta'sir esa yuqori nizoli guruhlarda 80–90% ga yetadi. Natijalar oila tizimlari, kognitiv-kontekstual va emotsional xavfsizlik nazariyalari asosida talqin qilinib, amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: yuqori nizoli ajrim, bolalar sotsializatsiyasi, ta'lim regressiyasi, xulq-atvor og'ishlari, oila tizimlari nazariyasi, emotsional xavfsizlik, O'zbekiston.

ВЛИЯНИЕ РАЗВОДОВ НА ОБУЧЕНИЕ И ПОВЕДЕНИЕ ДЕТЕЙ

Негматова Фарангиза
Абдувалиева Мумтозхон

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, преподаватель-стажёр.
Национальный университет Узбекистана, PhD, доцент.

Аннотация.

В статье представлено эмпирическое исследование влияния высококонфликтного бракоразводного процесса между родителями на учебную деятельность, эмоциональное состояние и поведение несовершеннолетних детей в Узбекистане. В рамках количественного исследования с поперечным дизайном был проведён опрос 250 родителей (N = 250), проживающих в городских и сельских районах, которые находились в процессе развода или недавно развелись. Согласно результатам частотного анализа и анализа таблиц сопряжённости, в 78,4% семей уровень конфликтности оценивался как «высокий» или «очень высокий». При этом 86,4% респондентов отметили ухудшение успеваемости своих детей (43,2% — значительное негативное влияние, 43,2% — частичное влияние), а 56,4% сообщили о существенных изменениях в поведении и эмоциональном состоянии детей. По мере повышения уровня конфликтности увеличивается доля детей с выраженными поведенческими отклонениями, а негативное влияние на обучение в группах с высокой конфликтностью достигает 80–90%. Полученные результаты интерпретируются на основе теории семейных систем, когнитивно-контекстуальной теории и теории эмоциональной безопасности. На их основе предлагаются практические рекомендации.

Ключевые слова: высококонфликтный развод, социализация детей, снижение учебной успеваемости, поведенческие отклонения, теория семейных систем, эмоциональная безопасность, Узбекистан.

THE IMPACT OF DIVORCE ON CHILDREN'S EDUCATION AND BEHAVIOR

Negmatova Farangiza
Abduvaliyeva Mumtozxon

Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Trainee

ISSN 3060-5059 (Online)

Lecturer.
National University of Uzbekistan, PhD, Associate Professor.

Abstract.

This article presents an empirical investigation of the impact of high-conflict parental divorce on the academic performance, emotional well-being, and behavioral functioning of minor children in Uzbekistan. A cross-sectional quantitative research design was employed, involving a survey of 250 parents (N = 250) from urban and rural areas who were either undergoing divorce proceedings or had recently divorced. According to the results of frequency and cross-tabulation analyses, the level of conflict was rated as "high" or "very high" in 78.4% of families. Furthermore, 86.4% of respondents reported a decline in their children's academic performance (43.2% indicated a significant negative impact, while 43.2% reported a partial impact), and 56.4% noted substantial changes in their children's behavior and emotional well-being. As the level of parental conflict increases, the proportion of children exhibiting significant behavioral problems also rises, while the negative impact on education reaches 80–90% in high-conflict groups. The findings are interpreted through the theoretical frameworks of family systems theory, cognitive-contextual theory, and emotional security theory, and practical recommendations are provided.

Keywords: high-conflict divorce, child socialization, academic decline, behavioral problems, family systems theory, emotional security, Uzbekistan.

Kirish. Oila instituti har qanday jamiyatning bazaviy demografik va sotsiomadaniy negizi hisoblanadi. Biroq O‘zbekistonda tarixan shakllangan kengaytirilgan patriarxal oila modeli urbanizatsiya, iqtisodiy munosabatlarning erkinlashuvi va shaxsning individuallashuvi ta’sirida chuqur transformatsiyaga uchramoqda. Ajrim bugun keng tarqalgan ijtimoiy reallikka aylandi: so‘nggi hisobotlarga ko‘ra, yillik ajrimlar soni barqaror o‘sib bormoqda [1]. Markaziy Osiyoda oila ikki shaxsning ittifoqigina emas, balki keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlik tarmog‘i ekanini hisobga olsak [2], uning parchalanishi, eng avvalo, birlamchi sotsializatsiya bosqichidagi bolalarga og‘ir ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot maqsadi – yuqori nizoli ajrim jarayonida ota-onalar o‘rtasidagi nizo darajasi bilan bolaning ta’lim faoliyati hamda hissiy-xulq-atvor holati o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik ma’lumotlar asosida aniqlash. Tadqiqotda quyidagi gipotezalar ilgari surildi:

– H1a: oiladagi nizo darajasi ortgan sari bolaning o‘quv faoliyatidagi kognitiv pasayish (akademik o‘zlashtirishning pasayishi) kuchayadi;

– H1b: oiladagi nizo darajasi ortgan sari bolada hissiy va xulq-atvor og‘ishlari (agressiya, yopiqlik, jamiyatdan uzoqlashish) ulushi ortadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon adabiyotida ajrimning bolalarga ta’siri keng o‘rganilgan. P. Amato o‘z meta-tahlillarida ajrashgan oilalar farzandlari to‘liq oilalardagi tengdoshlariga nisbatan akademik o‘zlashtirish, hissiy barqarorlik va ijtimoiy moslashuv jihatidan ortda qolishini ko‘rsatgan [3, 4]. J. Kelly va R. Emery esa asosiy psixologik travmani ajrimning huquqiy fakti emas, balki unga hamroh bo‘luvchi uzoq muddatli «yuqori nizoli» (high-conflict) muhit keltirib chiqarishini asoslagan [5, 6].

Tadqiqotning nazariy asosini M. Bowenning «Oila tizimlari nazariyasi» tashkil etadi: oila yaxlit emotsional tizim bo‘lib, ota-ona munosabatlaridagi deformatsiya muqarrar ravishda eng himoyasiz a’zo – bolaga ta’sir ko‘rsatadi [7]. S. Minuchin ajrim jarayonida ierarxik chegaralarning buzilishi va bolaning konfliktga tortilishini (enmeshment) tavsiflaydi [8]. Bolaning rivojlanishi mikrotizim (oila) va makrotizim (jamiyat) o‘zaro ta’siriga bog‘liq [9], ota-onaning shaxsiy ziddiyatlari esa ularning tarbiyaviy funksiyasini izdan chiqaradi [10].

Empirik tadqiqotlar bu mexanizmlarni tasdiqlaydi. J. Wallersteinning 25 yillik longityud kuzatuvida shiddatli kelishmovchiliklar qurboni bo‘lgan bolalardagi emotsional og‘ishlar ularning katta yoshdagi hayotiga ham ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan [11]. E. Hetherington va F. Furstenberg ajrim jarayonidagi bolalarda depressiya, o‘zini yakkalash va agressiya ehtimoli yuqoriligini ko‘rsatgan [12, 13], D. Potter va Y. Sun esa surunkali stress bolalarning maktabdagi akademik ko‘rsatkichlarini keskin pasaytirishini aniqlagan [14, 15]. J. Grych va F. Finchamning «kognitiv-kontekstual modeli»ga ko‘ra, ota-onalar nizosini kuzatgan bolada kognitiv dissonans va aybdorlik hissi shakllanadi [16]. E. Cummingsning «emotsional xavfsizlik nazariyasi» esa nizo eskalatsiyasi bolaning atrof-muhitga bo‘lgan bazaviy ishonchini yemirishini ta’kidlaydi [17].

O‘smirlarning «ota-onalar o‘rtasida qisqichda qolish» (feeling caught) holati [18] va bu stressning psixosomatik oqibatlari [19, 20, 21] ham yoritilgan. Biroq G‘arb tadqiqotlari xulosalarini O‘zbekiston sharoitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib bo‘lmaydi. R. Ubaydullayeva oila shaxs barqarorligining asosiy tayanchi ekanini va uning yemirilishi kuchli ijtimoiy stigmani keltirib chiqarishini ko‘rsatgan [22], F. Akramova esa ota-onalar ajrimining o‘zbek mentalitetidagi og‘ir emotsional oqibatlarini qayd etgan [23]. Respublikada ajrim asosan yuridik-iqtisodiy doirada ko‘rib chiqilmoqda, yuqori nizoli ajrimlarning bolalar ta’limi va xulq-atvoriga ta’siri esa maxsus empirik tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan.


MATERIALLAR VA METODLAR

ISSN 3060-5059 (Online)


Tadqiqotda kesishma miqdoriy (cross-sectional quantitative) dizayn qo‘llanildi. Bosh to‘plamni nikohni bekor qilish uchun sudga murojaat qilgan yoki so‘nggi bir yil ichida ajrashgan ota-onalar tashkil etdi. Inklyuziv mezon sifatida respondentning kamida bitta voyaga yetmagan (0–18 yosh) farzandi bo‘lishi belgilandi. Tanlanma maqsadli (purposive) va hududiy-kvota usullari asosida shakllantirildi. Yopiq guruhga chiqish qiyinligi sababli qisman «qor to‘pi» (snowball) texnikasidan foydalanildi. To‘liq to‘ldirilmagan anketalar chiqarib tashlangach, yakuniy tanlanma N = 250 nafarni tashkil etdi (95 foizlik ishonch oralig‘ida xatolik marjasi taxminan ±6 foiz).

TAHLIL VA NATIJALAR

Respondentlarning 54,4 foizi ayollar (n = 136), 45,6 foizi erkaklar (n = 114). Eng katta yosh guruhini 31–40 yoshlilar (48,0%, n = 120) tashkil etadi. Keyingi o‘rinlarda 20–30 yoshlilar (33,2%, n = 83), 41–50 yoshlilar (15,2%, n = 38) va 51 yoshdan kattalar (3,6%, n = 9) turadi. Respondentlarning 61,2 foizi shahar, 38,8 foizi esa qishloq hududlarida yashaydi (1- va 2-rasmlar).



1-rasm. Respondentlarning jins tarkibi (N=250)



2-rasm. Respondentlarning yosh toifalari (N=250)

Birlamchi ma’lumotlar «Family Environment Scale» (FES) va «Child Behavior Checklist» (CBCL) standartlariga moslashtirilgan hamda mahalliy mentalitet hisobga olingan mualliflik anketasi orqali yig‘ildi. Ushbu maqolada anketaning quyidagi bloklaridan foydalanildi:

– Ijtimoiy-demografik blok (S1–S8): jins, yosh, hudud, ajrim bosqichi (S5), farzandlar soni va yoshi (S6–S7), bola kim bilan yashashi (S8);

– Mustaqil o‘zgaruvchi – nizo darajasi (S9): «Oiladagi nizolar darajasini qanday baholaysiz?» savoli 5 darajali ordinal Likert shkalasi (deyarli yo‘q, past, o‘rtacha, yuqori, juda yuqori) asosida o‘lchandi; yordamchi omil sifatida bolaning nizoga guvoh bo‘lgani (S10) qayd etildi;

– Tobe o‘zgaruvchilar: ajrimning o‘qishga ta’siri (S17: umuman ta’sir ko‘rsatmadi / deyarli ta’sir ko‘rsatmadi / qisman / sezilarli salbiy), xulq-atvor yoki hissiy holatdagi o‘zgarishlar (S13: o‘zgarish bo‘lmadi / juda kam / qisman / sezilarli), tengdoshlar bilan munosabat (S18) va muammolari haqida erkin gaplasha olish (S21).

Ma’lumotlar kodlanib, Python (Pandas, Seaborn) va SPSS yordamida tahlil qilindi. Birinchi bosqichda chastota va foiz ko‘rsatkichlari hisoblandi. Ikkinchi bosqichda S9 o‘zgaruvchisi qatorlarga, S17 va S13 o‘zgaruvchilari esa ustunlarga joylashtirilib, qatorlar bo‘yicha normallashtirilgan kross-tabulyatsiya (normalize='index') o‘tkazildi. Bu har bir nizo darajasidagi oilalar ichida tobe o‘zgaruvchilar taqsimotini alohida solishtirish imkonini berdi. Ushbu maqola institutsional qo‘llab-quvvatlash masalalari alohida ko‘rib chiqiladigan kengroq tadqiqot loyihasining ma’lumotlar bazasiga asoslanadi.

Deskriptiv tahlil ajrim jarayonidagi oilalarning mutlaq aksariyatida munosabatlar kritik adovat darajasiga yetganini ko‘rsatdi (1-jadval). Jami 78,4 foiz holatda kelishmovchilik shiddatli, ochiq adovat va surunkali stress fonida kechmoqda, past yoki deyarli nizosiz ajrimlar esa atigi 6,0 foizni tashkil etadi.

1-jadval. Oiladagi nizo darajasi (S9), N=250

Nizo darajasi	**n**	**%**
Juda yuqori	91	36.4
Yuqori	105	42.0
O‘rtacha	39	15.6
Past yoki deyarli yo‘q	15	6.0
Yuqori va juda yuqori (jami)	**196**	**78.4**

Bunday muhitda bolaning yashash joyi ham sotsializatsiyani belgilovchi omil hisoblanadi. S8 o‘zgaruvchisiga ko‘ra, farzandlarning 75.2% i ona qaramog‘ida qolmoqda (2-jadval). Bolaning birdaniga to‘liqsiz oila (single-parent household)

modeliga o‘tishi uning ijtimoiy himoyasini susaytiradi va ziddiyatli o‘tish davrini boshlab beradi.

2-jadval. Ajrim jarayonida bola kim bilan yashaydi (S8), N=250

Yashash holati	**n**	**%**
Ona bilan	188	75.2
Ota bilan	26	10.4
Ikkala ota-onada navbatma-navbat	20	8.0
Bobo-buvi yoki boshqa qarindoshlar bilan	12	4.8
Boshqa / ko‘rsatilmagan	4	1.6


Umumiy tanlanmada respondentlarning 86.4% i bolaning maktab yoki bog‘chadagi o‘zlashtirishida pasayish yuz berganini qayd etgan; faqat 13.6% holatda akademik ko‘rsatkichlarda jiddiy o‘zgarish kuzatilmagan (3-jadval).

3-jadval. Ajrim jarayonining bola o‘qishiga ta’siri (S17), N=250

Ta’sir darajasi	**n**	**%**
Sezilarli salbiy	108	43.2
Qisman ta’sir	108	43.2
Deyarli yoki umuman ta’sir ko‘rsatmadi	34	13.6
Salbiy ta’sir (jami)	**216**	**86.4**

Nizo darajasi bo‘yicha kross-tabulyatsiya natijalari 3-rasmda keltirilgan. «Yuqori» nizoli oilalarda salbiy ta’sir (qisman va sezilarli) ulushi qariyb 90 foizni tashkil etadi, «sezilarli salbiy» ta’sir esa aynan shu guruhda eng yuqori qiymatga (taxminan 48 foiz) yetadi. «Juda yuqori» nizoli oilalarda salbiy ta’sir taxminan 81 foizni tashkil etib, unda «qisman ta’sir» (taxminan 45 foiz) ustunlik qiladi. Nizo darajasi past va o‘rtacha bo‘lgan guruhlarda ham salbiy ta’sir yuqori bo‘lsa-da, bu guruhlar nisbatan kichik (jami n = 54) bo‘lgani sababli ulardagi foizlarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish lozim.

J. Grych va F. Finchamning kognitiv-kontekstual modeli nuqtayi nazaridan bu natijani quyidagicha izohlash mumkin: uydagi surunkali janjal va beqarorlik bolaning kognitiv resurslarini (diqqat, xotira, mantiqiy fikrlash) sarflaydi [16]. Bola intellektual energiyasini darslarni o‘zlashtirishga emas, balki oiladagi xavfli muhitni kuzatish, navbatdagi janjalni oldindan sezish va o‘zini himoya qilishga sarflaydi. Oqibatda bola maktab hayotiga qiziqishini yo‘qotadi, uy vazifalarini bajarmaydi, o‘qituvchilar bilan muloqotdan qochadi. Shunday qilib, empirik ma’lumotlar H1a gipotezasini asosan tasdiqlaydi: yuqori nizoli guruhlarda ta’limga salbiy ta’sir ulushi juda yuqori, ammo bog‘liqlik qat’iy chiziqli xususiyatga ega emas.



3-rasm. Oiladagi nizo darajasining bolaning ta’limiga ta’siri (S9 × S17, qator bo‘yicha %)

S13 o‘zgaruvchisi bo‘yicha natijalar o‘ta xavotirli tendensiyani ko‘rsatdi: bolalarning 56.4% ida xulq-atvor sezilarli darajada o‘zgargan (agressiya, asabiylik, yopiqlik), 29.6% ida qisman o‘zgarishlar kuzatilgan va faqat 14.0% ida barqarorlik saqlanib qolgan (4-jadval).


4-jadval. Bolaning xulq-atvori yoki hissiy holatidagi o‘zgarishlar (S13), N=250

O‘zgarish darajasi	**n**	**%**
Sezilarli darajada	141	56.4
Qisman	74	29.6
Juda kam yoki o‘zgarish bo‘lmadi	35	14.0

Kross-tabulyatsiya (4-rasm) nizo darajasi bilan xulq-atvor og‘ishlari o‘rtasida aniq musbat yo‘nalishdagi

ISSN 3060-5059 (Online)

bog‘liqlikni ko‘rsatadi. «Sezilarli darajada» o‘zgarishlar ulushi past nizoli guruhlarda taxminan 40% bo‘lsa, o‘rtacha va yuqori nizoli guruhlarda 53–54% ga, «juda yuqori» nizoli oilalarda esa taxminan 64% ga yetadi. Aksincha, «o‘zgarish bo‘lmadi» va «juda kam» javoblari ulushi nizo ortishi bilan kamayib boradi.



4-rasm. Nizo darajasi va boladagi xulq-atvor o‘zgarishlari (S9 × S13, qator bo‘yicha %)

E. Cummingsning emotsional xavfsizlik nazariyasiga ko‘ra, oiladagi shiddatli adovat bolada ikki asosiy reaksiyani keltirib chiqaradi [17]. Birinchisi – eksternalizatsiya: agressivlashuv, tengdoshlar bilan urishish, itoatsizlik. S18 o‘zgaruvchisi bo‘yicha ko‘pchilik ota-onalar bolaning do‘stlaridan uzoqlashgani yoki asabiy bo‘lib qolganini ta’kidlagan. Ikkinchisi – internalizatsiya: depressiya, o‘zini yakkalash, aybdorlik hissi va psixosomatik holatlar. S21 savoliga («Muammolari haqida erkin suhbatlasha oladimi?») javoban aksariyat respondentlar bolaning odamovi bo‘lib qolganini bildirgan. Shu tariqa H1b gipotezasi tasdiqlandi.

MUHOKAMA

Natijalar jahon tadqiqotlarida qayd etilgan qonuniyatni [3, 5, 11] O‘zbekiston sharoitida tasdiqlaydi, biroq uning ko‘lami ancha kattaroq: oilalarning 78,4 foizida kritik darajadagi nizo, 86,4 foiz holatda ta’limga salbiy ta’sir va 56,4 foiz holatda sezilarli xulq-atvor og‘ishlari kuzatilgani ajrim bu yerda asosan murosali muzokaralar emas, balki chuqur konflikt orqali kechishini ko‘rsatadi.

M. Bowen nazariyasiga ko‘ra, er-xotin ziddiyati «uchburchaklashuv» (triangulation) jarayonini keltirib chiqaradi: ikki tomon emotsional yukni yengillashtirish uchun eng ojiz uchinchi tomon – bolani nizo markaziga tortadi [7]. G‘arb jamiyatlarida ajrim ko‘proq shaxsiy chegaralar doirasidagi huquqiy tanlov sifatida qabul qilinsa, O‘zbekistondagi sotsiomadaniy kollektivizm nizoni er-xotin doirasida cheklashga imkon bermaydi: unga kengaytirilgan oila a’zolari ham jalb qilinadi [2, 22]. Natijada bola ikkala tomon uchun «psixologik qurol»ga aylanadi (enmeshment) [8]: u onasiga sadoqatini isbotlash uchun otasidan yoki aksincha, otasiga sadoqatini isbotlash uchun onasidan uzoqlashishga majbur bo‘ladi. Bunday kognitiv dissonans [16] maktab yoshidagi bolaning mantiqiy fikrlash qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va uning energiyasi «omon qolish»ga sarflanadi.

Ta’limga ta’sirning nizo darajasi bilan qat’iy chiziqli bog‘lanmagani ham e’tiborga molik. Nizo darajasi past bo‘lgan guruhlarda ham salbiy ta’sirning yuqoriligi ajrim faktining o‘zi mustaqil stress omili ekanini ko‘rsatadi [3, 24], yuqori darajadagi nizo esa uni kuchaytiradi. Xulq-atvor og‘ishlarida esa nizo darajasi bilan bog‘liqlik aniqroq namoyon bo‘ldi. Bu Kelly va Emery xulosalariga [5, 6] mos keladi: bolaning emotsional holati uchun ajrimning o‘zidan ko‘ra nizo intensivligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bolalikdagi emotsional travma katta yoshdagi hayotga ham ta’sir ko‘rsatib [11], kelgusida o‘smirlar huquqbuzarligi va ajrimlarning avloddan-avlodga o‘tishi (intergenerational transmission of divorce) ehtimolini oshiradi [12, 21].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot O‘zbekistonda yuqori nizoli ajrimlar voyaga yetmagan bolalarning ta’lim olishi va hissiy rivojlanishi uchun jiddiy xavf omili ekanini empirik jihatdan ko‘rsatdi. Ajrim jarayonidagi oilalarning 78,4 foizida nizo kritik darajada bo‘lgan; 86,4 foiz holatda bolaning o‘qishi pasaygan, 56,4 foiz holatda esa agressiya, depressiya yoki yopiqlik kabi sezilarli xulq-atvor og‘ishlari yuzaga kelgan. Xulq-atvor og‘ishlari nizo darajasi bilan musbat bog‘liq (H1b tasdiqlandi), ta’limga salbiy ta’sir esa yuqori nizoli guruhlarda 80–90 foizga yetadi (H1a asosan tasdiqlandi).

Natijalardan kelib chiqib, quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Maktab va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasida «Qizil chiziq» protokolini joriy etish – o‘qituvchilar va maktab psixologlari boladagi dastlabki kognitiv va hissiy og‘ishlarni birinchi bo‘lib aniqlab, ijtimoiy xizmatlarga yo‘naltiruvchi «filtr»ga aylanishi.

2. Ota-onasi ajrashayotgan bolalar bilan ishlash, xususan, kognitiv dissonansni yumshatish bo‘yicha maktab psixologlari uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish.

3. Ajrim jarayonidagi ota-onalarga «birgalikdagi ota-onalik» (co-parenting) bo‘yicha psixologik tayyorgarlik

kurslarini taklif etish.

Kelgusida longityud va gender jihatidan qiyosiy tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti. O‘zbekistonda nikoh barqarorligi va ajrimlar holati: sotsiologik hisobot. – Toshkent, 2026.
2. Roche S. The Family in Central Asia. – De Gruyter, 2020.
3. Amato P. R. The Consequences of Divorce for Adults and Children // Journal of Marriage and Family. – 2000. – Vol. 62, № 4. – P. 1269–1287. – DOI: https://doi.org/10.1111/j.1741-3737.2000.01269.x.
4. Amato P. R. Research on Divorce: Continuing Trends and New Developments // Journal of Marriage and Family. – 2010. – Vol. 72, № 3. – P. 650–666. – DOI: https://doi.org/10.1111/j.1741-3737.2010.00723.x.
5. Kelly J. B. Children’s Adjustment in Conflicted Marriage and Divorce: A Decade Review of Research // Journal of the American Academy of Child & Adolescent Psychiatry. – 2000. – Vol. 39, № 8. – P. 963–973.
6. Emery R. E. Renegotiating Family Relationships: Divorce, Child Custody, and Mediation. – Guilford Press, 2011.
7. Bowen M. Family Therapy in Clinical Practice. – Jason Aronson, 1978.
8. Minuchin S. Families and Family Therapy. – Harvard University Press, 1974.
9. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Harvard University Press, 1979.
10. Belsky J. The Determinants of Parenting: A Process Model // Child Development. – 1984. – Vol. 55, № 1. – P. 83–96.
11. Wallerstein J. S., Lewis J. M., Blakeslee S. The Unexpected Legacy of Divorce: A 25-Year Landmark Study. – Hyperion, 2000.
12. Hetherington E. M., Kelly J. For Better or for Worse: Divorce Reconsidered. – W. W. Norton & Company, 2002.
13. Furstenberg F. F., Cherlin A. J. Divided Families: What Happens to Children When Parents Part. – Harvard University Press, 1991.
14. Potter D. Psychosocial Well-Being and the Relationship between Divorce and Children’s Academic Achievement // Journal of Marriage and Family. – 2010. – Vol. 72, № 4. – P. 933–946.
15. Sun Y., Rong J. L. Children’s Well-Being during Parents’ Marital Disruption Process: A Pooled Time-Series Analysis // Journal of Marriage and Family. – 2002. – Vol. 64, № 2. – P. 472–488.
16. Grych J. H., Fincham F. D. Marital Conflict and Children’s Adjustment: A Cognitive-Contextual Framework // Psychological Bulletin. – 1990. – Vol. 108, № 2. – P. 267–290.
17. Cummings E. M., Davies P. T. Children and Marital Conflict: The Impact of Family Dispute and Resolution. – Guilford Press, 1994.
18. Buchanan C. M., Maccoby E. E., Dornbusch S. M. Caught between Parents: Adolescents’ Experience in Divorced Homes // Child Development. – 1991. – Vol. 62, № 5. – P. 1008–1029.
19. van der Wal R. C., Finkenauer C., Visser M. M. Reconciling Mixed Findings on Children’s Adjustment Following High-Conflict Divorce // Journal of Child and Family Studies. – 2019. – Vol. 28. – P. 468–478.
20. Mechanic D., Hansell S. Divorce, Family Conflict, and Adolescents’ Well-Being // Journal of Health and Social Behavior. – 1989. – Vol. 30, № 1. – P. 105–116.
21. Lansford J. E. Parental Divorce and Children’s Adjustment // Perspectives on Psychological Science. – 2009. – Vol. 4, № 2. – P. 140–152.
22. Ubaydullayeva R. A. Society and Family in Uzbekistan // Sotsiologicheskie issledovaniya. – 2011. – № 11. – P. 74–81.
23. Akramova F. Oila psixologiyasi va sotsiologiyasi: darslik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2019.